



**MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINI IJTIMOYIY-
PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH UCHUN YO'NALTIRILGAN
PEDAGOGIK JARAYON**

**Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 103-
guruh talabasi Inomjonova Farangiz
Abrorjon qizi**

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15233087>

Annotatsiya: Ushbu maqolada "maktabgacha ta'lim" yo'nalishi talabalarini ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash – pedagogik zaruriyati haqidagi fikrlar yoritilgan. Shu bilan birga shaxsning ijtimoiylashuvida ijtimoiy, psixologik va pedagogik omillarning ta'siri muhim ahamiyatga ega ekanligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, shaxs, sog'lom, yetuk, tafakkur, ijtimoiylashuv, ijtimoiylashtirish, falsafa, ijtimoiy-pedagogik faoliyat jarayoni.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim siyosatining muhim maqsadlaridan biri yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalashdir. Barkamol inson deganda ma'naviy jihatdan yetuk, o'z vatanining tarixi, buguni va kelajagi uchun qayg'uradigan, shuningdek iqtisodiy taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shish ishtiyoqida yonib yashaydigan shaxsni tushunish bugungi kun talabiga mos keladi. Mehnat ta'limiga doir o'quv vazifalari, maktabdagi boshqa fanlarning o'quv vazifalari, o'quvchilarga yangi bilimlar berish, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish, bilimlarni amalda qo'llash darslar samaradorligiga erishish va xokazolarni talab etadi.

Bizga ma'lumki, jamiyatimiz doimo taraqqiy etib boradi. Buning uchun esa yangicha bilim berish, o'zgarib boruvchi mehnat va hayot sharoitlariga muvofiq, tanqidiy ijodiy faoliyat bilan shug'ullana olish ko'nikmalari tarkib topgan bo'lishi lozim. Demak tarbiya yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlashda, u mavjud jamiyat imkoniyatlarini shakllantirish, yanada rivojlantirish maqsadida keksa avlod tomonidan orttirilgan tarixiy tajribani to'ldirgan, yanada mukammallashtirgan holda yosh avlodga singdirishdan iborat. Yurtboshimiz Mirziyoyev Shavkat Miromonovich: "Yurtimizda ilm-fan, sog'liqni saqlash, ma'daniyat va san'at, sport kabi muhim sohalar faol tarzda rivojlanmoqda", - deb ta'kidlagan edilar. Darhaqiqat, Respublikamizda ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar keng doirada amalga oshirib kelinmoqda. «Hozirgi kunda innovatsion texnologiyalar va ilm fanni yanada rivojlantirish, iqtidorli yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishlari uchun ularga zarur shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy muammolarni o'rganish va ularning ijobiy yechimini topishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat ko'lami jihatdan murakkab bo'lib, u bir necha yo'nalishlarda tashkil etiladi. Shaxsni ijtimoiy munosabatlarga moslashuvini ta'minlash; ota-ona qarovi va parvarishidan mahrum bo'lgan bolalar bilan ishlash; normadan og'ish va deviatsiya holatlarini namoyon etuvchi, shuningdek, spirtli ichimliklar hamda giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchi bolalar va o'smirlar o'rtasida o'rtasida profilaktik ishlarni olib borish ijtimoiy-pedagogik faoliyatning muhim yo'nalishlari hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ham ijtimoiy institutlardan biri sifatida bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish, ularni turli salbiy ijtimoiy ta'sirlardan muhofazalash, maktab ta'limiga tayyorlash hamda psixologik jihatdan zo'riqishlarining oldini olishda alohida o'rin tutadi. Bu muassasalarda tarbiyachilar bolalarni ijtimoiylashtirishda asosiy rolni o'ynaydilar. Bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish borasida puxta nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishlari esa kutilgan natijani qo'lga kiritish imkonini beradi.



Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning hayotida oila bilan bir qatorda maktabgacha ta'lim muassasalari muhim o'rin tutadi. Maktabgacha ta'lim muassasalari "... bola shaxsini sog'lom va etuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi".

Bola shaxsining sog'lom va etuk bo'lib kamol topishi maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatida samaradorlikka erishishda ularning moddiy-texnik ta'minoti, pedagog kadrlarning salohiyati, ta'lim-tarbiya yo'nalishlari, pedagogik jarayon mazmuni, shuningdek, tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar o'rtasida qaror topgan sog'lom psixologik muhit ustuvor ahamiyatga ega.

Garchi tashqi omillar (jumladan, ta'lim muassasasining moddiy-texnik ta'minoti)ni yaratishda davlat hamda jamiyatning bevosita ishtiroki kuzatilsa, ichki omillar (mas., malakali pedagoglarni muassasaga jalb etib, jamoada sog'lom psixologik muhitni qaror toptirish, ta'lim-tarbiya ishlari mazmunini zamon talablariga muvofiq yangilash, pedagogik jarayonni tashkil etishga ijodiy yondashish kabilar) mavjudligini ta'minlash maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv mahoratlari va pedagogik jamoaning sa'i-harakatlariga bog'liqdir.

So'nggi yillarda ijtimoiy hayot sur'atining tezlashuvi natijasida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning fiziologik-psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularni mazmunan murakkab, ko'pqirrali hamda ichki raqobatga asoslanuvchi ijtimoiy munosabatlar jarayoniga tayyorlash ehtiyoji yuzaga keldi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar (mas., Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, AQSH hamda Yaponiya kabilar)ning tajribalari va bir qator pedagogik-psixologik tadqiqotlarning natijalari ushbu ehtiyojni ta'lim muassasalarida ijtimoiy-pedagogik faoliyatni yo'lga qo'yish orqali qondirish mumkinligini ko'rsatmoqda.

Tanlangan muammo yechimini topishga yo'naltirilgan ilmiy-pedagogik faoliyat jarayonini yoritishda ustuvor bo'lgan tushunchalar mohiyatini to'g'ri anglab olish tadqiqot yo'nalishini to'g'ri belgilashga imkon beradi. Ayni o'rinda: ijtimoiylashuv, ijtimoiy-pedagogik faoliyat, ijtimoiy-pedagogik faoliyat ko'nikmalari, ijtimoiy-pedagogik faoliyat malakalari, ijtimoiy-pedagogik axloq, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy tayyorlash kabilar tayanch tushunchalar sanaladi.

"Ijtimoiylashtirish" tushunchasi "Falsafa. Qisqacha izohli lug'at"da quyidagicha sharhlangan: "jamiyatning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo'lgan namunali xulq, psixologik mexanizm, sotsial norma va qadriyatlarni o'zlashtirish jarayoni". "O'zbek tilining izohli lug'ati"da esa "ijtimoiylashmoq" tushunchasi "ijtimoiy tus olmoq" ma'nosini anglatilishi ko'rsatilgan. Ijtimoiy tus olish tushunchaning umumiy mohiyatini ochib beradi. Biroq, ijtimoiy-falsafiy, pedagogik va psixologik nuqtai nazardan tahlil etilganda tushuncha mazmunini kengroq, batafsil yoritish taqozo etiladi. Zero, "ijtimoiy tus olish" aynan natijani ifodalashga xizmat qiladi. SHaxsning ijtimoiylashuvida va aynan pedagogik talqinda natijadan avval jarayonning mohiyati, uning kechishini o'rganish, tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, shaxsning ijtimoiylashuvida ijtimoiy, psixologik va pedagogik omillarning ta'siri muhim ahamiyatga ega. Biroq, bizning nazarimizda R.S.Nemovdan farqli ravishda shaxs ijtimoiylashuvida uning psixologik funksiyalari takomillashuvi muhim ekanligini inkor etmagan holda globallashuv sharoitida ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, xulq-atvor me'yori va qoidalarning o'zlashtirilishi, dunyoqarashning boyishi etakchi o'rin tutishini qayd qilmoqchimiz.

Ijtimoiy munosabatlar murakkab, keng qamrovli bo'lish bilan birga ma'lum ko'nikmalarga egalikni ham talab etadi. Shu sababli bugungi kunda bolalarni ijtimoiy munosabatlarga tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash ham aniq maqsadga yo'naltirilgan jarayon, ham pedagogik faoliyatning bir ko'rinishi sifatida tarbiyachilardan mutaxassislik, pedagogik, psixologik va metodik bilimlar, muayyan darajadagi ish tajribasi, boy dunyoqarash hamda kasbiy sifatlar (bolalarni seva olish, ularning shaxsini hurmat qilish, bag'rikenglik, mehribonlik, ularni tushuna olish, yordamga tayyorlik va boshqalar)ga ega bo'lishni taqozo etadi.

"Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi talabalarini ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon samaradorligini quyidagi mezonlar yordamida aniqlash mumkin:

1. Talabalarining maktabgacha ta'lim muassasalarida ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga oid nazariy bilimlarga egaliklari.



2. Talabalarining tarbiyalanuvchilarni ijtimoiy moslashtirish borasidagi amaliy ko'nikma va malakalarga egaliklari.

3. Talabalarining oilalarga metodik yordam ko'rsata olish qobiliyatiga egaliklari.

4. Talabalarining maktabgacha ta'lim muassasalarida ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga nisbatan ijodiy yondasha olishlari.

Yuqorida bildirilgan fikrlar “Maktabgacha ta'lim” yo'nalishi talabalarini ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonining umumiy mohiyatini yorituvchi quyidagi andozani ishlab chiqishga imkon berdi.

Demak, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilar tomonidan amalga oshiriluvchi ijtimoiy-pedagogik faoliyat jarayoni ko'lam jihatidan keng, bir necha yo'nalishdan iborat bo'lib, alohida kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishni taqozo etadi. Mazkur jarayonni samarali tashkil etilishi uning metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislar (maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari)ni tayyorlashda ushbu masalaga jiddiy e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi– T: O'zbekiston, 2016. - 56 b.

2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi /Tuzuvchilar Sh. Qurbonov, H. Saidov, R. Ahliddinov. Nashr uchun mas'ul: T. Risqiev. – Toshkent: Sharq NMK Bosh tahririyati, 1999. – 42-bet.

3. O'quvchi shaxsini shakllantirish /Tuzuvchilar: J. Fozilov, R. Sultonov, H. Saidov. Nashr uchun mas'ul J.G'. Yo'ldoshev. – Toshkent: “Ma'rifat-Madadkor”, 2000. – 10-bet.

4. Mudrik A.V. Osnovy sotsialnoy pedagogiki. – M.: ACADEMA, 2006. – S. 102.

5. Falsafa. Qisqacha izohli lug'at // Mas'ul muharrir A. Jalolov. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa kompaniyasi Bosh tahririyati, 2004. – 173-bet.

6. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. Ikkinchi jild. Ye–M.–Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 178-bet.